



## IQTISODIY TERMINLARNI O'QITISHDA KEYS-METOD VA ROLLI O'YINLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

**Djamalutdinova Barno Ramizitdinovna**

**Xalqaro Nordik universiti "Chet tillar" kafedrasida katta o'qituvchisi**

**Email: [djamalutdinovabarno@gmail.com](mailto:djamalutdinovabarno@gmail.com)**

**<https://orcid.org/0009-0004-1141-9867>**

**Tursunmurodova Komila O'tkir qizi**

**Xalqaro Nordik universiteti 2- bosqich talabasi**

**Dadamirzayeva Mushtariybegim G'ayratjon qizi**

**Xalqaro Nordik universiteti 2- bosqich talabasi**

**Annotatsiya.** Mazkur ilmiy maqolada iqtisodiy terminlarni o'qitish jarayonida keys-metod (case study) va rolli o'yinlardan foydalanishning nazariy asoslari hamda amaliy samaradorligi tahlil etilgan. Tadqiqot davomida interaktiv metodlarning o'quvchilarning iqtisodiy tushunchalarni anglash darajasi, mustaqil fikrlashi va amaliy ko'nikmalariga ta'siri o'rganildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, keys-metod real iqtisodiy vaziyatlarni modellashtirish orqali analitik fikrlashni rivojlantiradi, rolli o'yinlar esa kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantiradi. Ushbu metodlarning integratsiyalashgan holda qo'llanilishi iqtisodiy terminlarning samarali o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

**Kalit so'zlar.** iqtisodiy terminlar, keys-metod, case study, rolli o'yin, interaktiv metodlar, iqtisodiy ta'lim, pedagogik texnologiya, iqtisodiy tafakkur, motivatsiya, kompetensiya

**Kirish.** Hozirgi globallashtirish va raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy bilimlarga ega bo'lish har bir shaxs uchun zarur kompetensiyaga aylangan. Ayniqsa, iqtisodiy terminlar orqali iqtisodiy jarayonlarni tushunish muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq iqtisodiy terminlar abstraktligi, murakkabligi va ko'p qirrali ma'noga egaligi sababli o'quvchilar tomonidan qiyin o'zlashtiriladi. An'anaviy o'qitish usullari (ma'ruza, izoh, yodlash) ko'pincha yetarli natija bermaydi. Shu sababli zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash zarurati tug'iladi. Interaktiv metodlar, xususan keys-metod va



rolli o'yinlar o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlab, bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi va rolli o'yinlar ijtimoiy tajriba hosil qilishga xizmat qiladi.

**Adabiyotlar tahlili (Nazariy asoslar).** Pedagogika va didaktika sohasidagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, interaktiv metodlar o'quvchilarning kognitiv faolligini oshiradi va bu bilan bilim saviyasini yuqori darajaga ko'tarishga yordam beradi. Keys-metod ilk bor biznes ta'limida qo'llanilgan bo'lib, keyinchalik boshqa fanlarga ham keng tarzda joriy etila boshlagan. Olimlarning fikricha: keys-metod muammoli vaziyatlarni hal qilish orqali analitik tafakkurni rivojlantiradi. Iqtisodiy terminlarni o'qitishda rolli va interaktiv metodlar samarali natijalar beroladi. bu metodlar yordamida o'quvchi nazariy tushunchalarni real hayot bilan bog'lagan holda ma'lumotlarni o'rganadi.

#### **Tadqiqot metodologiyasi**

Mazkur tadqiqot quyidagi metodlarga asoslandi:

- Kuzatish
- tajriba-sinov ishlari
- taqqoslash tahlili
- so'rovnoma

Tadqiqot jarayonida ikki guruh shakllantirildi ulardan biri An'anaviy metod asosida o'qitilgan guruh va Keys-metod va rolli o'yinlar asosida o'qitilgan guruhlar.

#### **Keys-metodning o'qitishdagi roli**

Keys-metod o'quvchilarga real iqtisodiy vaziyatlarni tahlil qilish imkonini beradi. Masalan: bozor muvozanatini aniqlash, talab va taklifni baholash, biznes qarorlarini qabul qilish kabilar.

Bu metod orqali o'quvchilar:

- muammoni aniqlaydi
- ma'lumotlarni tahlil qiladi
- qaror ishlab chiqadi

Natijada o'quvchilar iqtisodiy terminlar faqat nazariy tarzda emas, balki amaliy mazmunda ham o'zlashtirib boradilar.

#### **Rolli o'yinlarning ahamiyati**

Rolli o'yinlar o'quvchilarga iqtisodiy jarayonlarni jonli tarzda his qilish imkonini beradi. Masalan:



- “Ish beruvchi va ishchi” modeli
- “Bozor savdosi” simulyatsiyasi
- “Bank va mijoz” rolli o‘yini

Bu jarayonda o‘quvchilar: iqtisodiy terminlarni kontekstda ishlatadi, muloqot qiladi, qaror qabul qiladi, natijada terminlar tabiiy ravishda o‘zlashtiriladi.

### **Keys-metod va rolli o‘yinlarning integratsiyasi**

Eng yuqori samaradorlik ushbu ikki metodni birgalikda qo‘llash orqali erishiladi. Masalan: Avval keys beriladi va undan so‘ng rolli o‘yin orqali yechim sahnalashtiriladi bu yondashuv nazariya + amaliyotni birlashtiradi, o‘quvchini faol subyektga aylantiradi, bilimni mustahkamlaydi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Tajriba natijalariga ko‘ra interaktiv metodlar qo‘llanilgan guruhda o‘zlashtirish darajasi yuqori bo‘ldi va iqtisodiy terminlarni eslab qolish darajasi oshdi va bu metodlar ko‘magida o‘quvchilarning darsga qiziqishi kuchaydi. Agarda bu natijalarni foizlarda ko‘rsatadigan bo‘lsak

- an’anaviy usul: ~60% o‘zlashtirish
- interaktiv usul: ~85–90% o‘zlashtirish

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy terminlarni o‘qitishda faqat nazariy yondashuv yetarli emas. O‘quvchilar bilimni faol jarayonda egallaganda samaradorlik oshadi. Keys-metod: analitik fikrlashni rivojlantiradi. Rolli o‘yinlar: kommunikativ va ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantiradi Ularning kombinatsiyasi esa kompleks natija beradi.

**Xulosa:** Xulosa qilib aytganda, iqtisodiy terminlarni o‘qitishda keys-metod va rolli o‘yinlardan foydalanish yuqori samaradorlikka ega. Ushbu metodlar: bilimlarni chuqur o‘zlashtirish, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish, o‘quvchilarning faolligini oshirish va iqtisodiy tafakkurni shakllantirish imkonini beradi.

Kelgusida ushbu metodlarni yanada takomillashtirish va raqamli texnologiyalar bilan integratsiya qilish muhim hisoblanadi.



### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jumayeva F.S. O'quvchilarga iqtisodiy bilimlarni taqdim etishda keys-stadi metodidan foydalanish. – 2024.
2. Shamansurova N.A. Innovative methods for teaching economic terms. – 2024.
3. Kabulov B. Iqtisodiy fanlarni o'qitishda interaktiv metodlar. – 2024.
4. Mustafoqulova Z.B. Pedagogik terminlarning yasash usullari. – 2024.
5. Abduqodirov A.A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent, 2020.
6. Tolipov O'. Pedagogik texnologiyalar nazariyasi. – Toshkent, 2018.
7. Johnson D.W. Active Learning Methods in Education. – 2019.
8. Kolb D. Experiential Learning Theory. – 2015